ÖZBEK VA INGLIZ XALQLARI URF-ODATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Bobomuratova Maşxura Dilşod qizi
Samarqand Davlat Çet tillar instituti 1-bosqiç talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada özbek hamda ingliz xalqlarining an’anaviy marosimlari va urf-odatlarining umumiyligi va qarama-qarşiliklari tahlil etilgan. Şu bilan birga, ikki xalqning turmuş tarzi, oilaviy munosabatlar, marosimlar va san’at sohasidagi öziga xos xususiyatlari yoritilgan. Şuningdek, milliy an’ana va qadriyatlarning jamiyatdagi örni haqida fikr yuritiladi. Şu bilan birga, globallaşuv jarayonida an’anaviy qadriyatlarning özgarişi va ularni kelajak avlodlarga yetkaziş masalalariga e’tibor qaratiladi. Har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va madaniy merosi orasida şakllangan an’analarining jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit sözlar: *özbek xalqi, ingliz xalqi, an’ana, qadriyatlar, madaniy meros, urf-odat, tarix ildizi, dunyoqaraş, mentalitet.*

Kiriş: Millat bor ekan, uning milliy qadriyatlari ham amal qiladi. Milliy qadriyatlar asosida milliy ğoya yotadi. Milliy qadriyatlar millat bilan birga şakllanadi, takomillaşadi. Özbek va ingliz xalqlarining turli tarixiy, madaniy şaroitlari ularning urf-odatlariga sezilarli ta’sir körsatgan. Ular avloddan-avlodga ötib, millatning tarixiy tajribasi, dunyoqaraşi, turmuş tarzi va öziga xosligini saqlaşga xizmat qiladi.

Har bir xalqning urf-odatlari, marosimlari va an’analari ularning milliy madaniy merosi va hayot tarzi haqida boy ma’lumot beradi. Qadriyatlar insonlarning xatti-harakatlarini, axloqini va jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soluvçi, avloddan-avlodga ötib, komil insonni şakllantirişga, millatning ma’naviy qiyofasini va genofondini globallaşuv şaroitida saqlab qoliş kafolati sifatida xizmat qiladi. Albatta, bizning urf-odatlarimiz boşqa xalqlardan rang-barangligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi va özbekona kiyimlarimiz insonga zavq bağişlaydi. Hozirga qadar qadrlanadigan milliy urf-odatlarimizdan:

1) Töylarda ijro etiladigan qadrli kuyimiz desak ham böladi, "Yor-yor" — bu kuysiz heç qaysi töylarni töy sifatida tasavvur eta olmaymiz;

2) Turli xil milliy özbekona öyinlarimiz: "Oq terakmi, kök terak", "Köpkari" va "Milliy kuraş" kabi öyinlarimizsiz, albatta, yoşligimizni tasavvur qila olmaymiz;

3) Endigi navbat, albatta, an’ana va qadriyat bölib qolgan milliy bayramlarimiz: "Navröz", "Hayit" bayrami hamda bahorda ötkaziladigan "Varrak uçiriş" bayram bellaşuvlari va hokazolarni öz içiga oladi.

Undan taşqari, özbek oilalarida kattalarni hurmat qiliş, mehmondöstlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlar ustun turadi. Şu bilan birga, oğzaki ijod namunalari — ertaklar, dostonlar, qöşiq va maqollar xalqning ma’naviy boyligini aks ettiruvçi qadriyatlardir. Şu qatorda, mahalla özbek madaniyatida katta örin tutadi. U odamlarni birlaştiradi, yaqinlaştiradi, ijtimoiy mavqei, millati va dinidan qat’iy nazar, har bir insonga hurmat bilan munosabatda bölişni örgatadi. Şu bois özbek xalqi orasida "Mahalla — ham ota, ham ona" degan hikmatli naql keng tarqalgandir.

Ingliz xalqi ham öziga xos boy tarixiy madaniy ildizga ega bölib, unda xalqning mentaliteti, yaşaş tarzi va qadriyatlari namoyon böladi. Misol uçun, ingliz madaniyatida şaxsiy çegaraga hurmat bilan qaraş, özgalarning işiga ortiqça aralaşmaslik va mustaqillik muhim örin tutadi. Şu bilan birga, jamoat joylarida, dökonlarda, avtobus bekatlarida qat’iy ravişda tartib bilan navbatda turiş ingliz madaniyatining muhim qismi hisoblanadi. Bundan taşqari, çoy içiş madaniyati, ya’ni "Afternoon tea" — inglizlar çoyga alohida e’tibor qaratgan, mehr qöygan. Kun davomida, ayniqsa tuşdan keyin sut yoki şakar qöşib çoy içiş milliy odat tusiga kirgan. An’anaviy bayrami Rojdestvo (Çristmas) 25-dekabr kuni nişonlanadi. Rojdestvo stolida kurka göşti, Plum-puding taomi tortiladi. Yana Pasxa bayrami ham inglizlar orasida keng nişonlanadi va barça insonlar bir-biriga şokoladli tuxumlar sovğa qiladi. Yana "Sovğalar kuni" (Boxing Day) — Rojdestvodan keyingi kun bölib, yaqinlarga sovğalar ulaşiş va sport musobaqalarini tomoşa qiliş bilan ötadi. Inglizlarda yana Gay Foks keçasi — 5-noyabr kuni gulxanlar yoqilib, muşakbozliklar qilinadigan tarixiy bayram ham keng nişonlanadi. An’anaviy raqs va marosim liboslariga keladigan bölsak, ingliz xalq raqslarini ijro etuvçi Morris raqqosalari oq köylak, tizzasiga qönğiroqçalar taqilgan maxsus şim yoki etik kiyişadi. Ammo ingliz xalqining boşqa köplab xalqlardan farqli ölaroq, umummilliy yagona kiyimi yöq, tarixiy jihatdan yagona milliy libos şakllanmagan. Şuning uçun milliy kiyim örnini köpinça tarixiy yoki kasbiy ramziy uniformalar egallaydi.

Özbek milliy kiyimlari rang-barangligi va naqşlarining gözalligi bilan ajralib turadi. Ayollar köpinça atlas, adras kabi milliy matolardan tikilgan liboslar kiyadi. Erkaklar esa döppi, çöpon va belboğda yuradi. Özbeklar uçun töy va marosimlar katta ahamiyatga ega. Töylar, nikoh marosimlari, sunnat töyi, Navröz va hayit bayramlari milliy ruhda nişonlanadi. Xalqning öziga xos kuy-qöşiqlari va raqslari bu tadbirlarda muhim örin egallaydi. Bahor faslining boşlanişi munosabati bilan ötkaziladigan Navröz bayrami Özbekistonning eng qadimiy va uluğ bayramlaridan biri hisoblanadi. Bu kunda sumalak pişiriladi va odamlar bir-birini tabriklaydi. Şuningdek, bu milliy bayramimiz hisoblanmiş Navröz ayyomi ummon orti AQŞda ham muntazam katta şodiyona sifatida katta qiziqiş bilan nişonlanadi. AQŞda ham Navröz bayrami ança yillardan beri yurtdoşlarimizni ruhan birlaştiriş, vatan hissini ularga ulaşişdek ezgu maqsad yölida xizmat qilib kelmoqda. Nyu-York şahrining Manxetten

mavzesida ham Navröz özgaça tantana bilan nişonlanadi. Tadbirga keladigan mehmonlarning asosiy qismi yurtdoşlarimizdan iborat bölsa-da, tadbirda bizning urf-odatlarimiz, an’analarimiz, öyinlarimiz va boşqa xalqlarda uçramaydigan bir-biridan qiziq bayram marosimlarimiz xorijliklarda özgaça tasavvur uyğotayotganligi, albatta, bizni quvontiradi.

Xalqlardagi an’analarining umumiyligiga qaraydigan bölsak, har ikki xalq ham özining qadimiy tarixiga, boy folkloriga, oilaviy bayramlariga va öziga xos milliy kiyim va oşxonasiga ega. Eng avvalo, har ikki xalqda oilaning jamiyat hayotidagi örni muhim hisoblanadi. Özbek oilalarida ota-ona va katta avlod vakillariga hurmat körsatiş qadimiy qadriyat sifatida şakllangan bölsa, ingliz jamiyatida ham ota-onaga e’tibor, oilaviy mas’uliyat va avlodlar örtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Qadriyatlar qançalik bir-biriga yaqinlaşib ta’sir körsatmasin, har bir millat uçun ma’naviy kamolotning asosiy yöli va mezoni milliy qadriyatlar bölib qoladi. Biron millatning yaxşi urf-odatlari, marosimlari qaçonki boşqa millat ruhiga, milliy ma’naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina şu millat hayotida çuqur tomir otiş imkoniga ega böladi. Har bir millatning öz qadriyatlari, madaniyati, tili, an’analari, urf-odatlari, marosimlari va odob normalari bor. Şuningdek, özbek milliy oşxonasi özining xilma-xilligi va mazali taomlari bilan maşhur. Palov, manti, somsa, lağmon, şaşlik, çuçvara va şörva kabi taomlar milliy an’analarning muhim qismini taşkil etadi. Özbeklar qadimdan kulolçilik, zargarlik, töqimaçilik va yoğoç öymakorligi bilan şuğullanib kelgan. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi şaharlarda xalq hunarmandçiligi yuqori darajada rivojlangan. Xuddi şunday, ingliz xalqining milliy taomlari ham asosan töyimli, tabiiy mahsulotlarga boy va tayyorlanişida göşt, baliq, sabzavot hamda xamir mahsulotlari ustunlik qiladi. Misol uçun, Roast Beef — maxsus peçda pişirilgan, örtaça qovurilgan mol göşti. Bundan taşqari, Full English Breakfast (an’anaviy inglizça nonuşta) — qovurilgan tuxum, bekon, sosiska, loviya, qöziqorin hamda qovurilgan pomidordan iborat. Bularning barçasi ingliz oşxonasining ajralmas bölagi sanaladi.

Xulosa: Uşbu tadqiqot davomida özbek va ingliz xalqlari urf-odatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning öziga xosligi va umumiy jihatlari aniqlandi. Yana bir jihatini alohida ta’kidlamoqçimanki, özbek va ingliz xalqlarining urf-odatlarini qiyoslaşda barça ingliz oilalari va barça özbek oilalari bir xil yaşaydi, degan xulosaga kelmaslik kerak. Şu bilan birga, ma’lum böldiki, urf-odatlar nafaqat marosimlar va an’analar majmui, balki xalqlarning dunyoqaraşi va mentalitetini belgilovçi muhim omildir. Özbek xalqida mehmondöstlik, mahalla, haşar, kattalarga hurmat va jamoaviylik muhim örin egallasa, ingliz madaniyatida xuşmuomalalik, şaxsiy hududga hurmat, çoy içiş an’anasi va tarixiy bayramlar alohida ahamiyatga ega. Şu bilan birga, ikki xalq madaniyatida oilaviy qadriyatlar, bayramlarni nişonlaş, özaro hurmat va avlodlar örtasidagi munosabatlarni qadrlaş kabi umumiy jihatlar mavjud. Şunday ekan, har bir xalqning urf-odatlari uning bebaho ma’naviy boyligi

hisoblanadi. Ularni asrab-avaylaş, ilmiy jihatdan örganiş va kelajak avlodlarga yetkaziş bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. QADRIYATLAR.UZ — Özbekona milliyligimiz sayti.
2. Google tarmoği.
3. ResearçGate sayti.
4. Mirzayev T. (2005). Özbek xalq oğzaki ijodi.
5. Qiyom Nazarov (2025). Millat qadri va "Milliy qadriyatlar". Şarq naşr, 747-bet.
6. Şoira Usmonova (2025). Özbek jamoaviyligining an’ana va urf-odatlarda namoyon bölişi. Results of National Scientific Research International Journal.
7. Mansur Musayev (2023). Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi örni. Toşkent naşr.
8. Feruza Mamatova (2022). Comparative Analysis of the Notion "Hospitality" Reflected in Linguaculturology. Oscar Publishing Services, 19–25-betlar. DOI: 10.37547/ajps/Volume02Issue06-05.
9. Abdugani Amanov (2025). Stereotypes of Uzbek and English Cultures. 136–140-betlar.
10. Vikipediya — oçiq ensiklopediya.